



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAXTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC.....	108
Musaeva Shoirazimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	116
Yuldashev Abduraxim Abduraximovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	122
Anvar Allabergенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUV VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	



O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI

Matkabulova Dilorom Xalilullayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Email: d.matkabulova1987@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda turizm infratuzilmasining mazmuni, tarkibi, funksiyalari, uni rivojlantirishning zarurligi, ahamiyati, amaliyoti, huquqiy asoslari, jarayonlari, investitsion imkoniyatlari va muammolari tahlil qilingan hamda mazkur muammolarni hal etishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, turizm industriyasi, turizm infratuzilmasi, sayyoh, investitsiya, mehmonxona, turistik xizmat, bandlik, turoperator, eksport.

Аннотация: В статье анализируется содержание, структура, функции туристической инфраструктуры в Узбекистане, необходимость, значение, практика, правовая база, процессы, инвестиционные возможности и проблемы ее развития, а также разрабатываются предложения и рекомендации по решению этих вопросов.

Ключевые слова: Туризм, индустрия туризма, туристическая инфраструктура, туризм, инвестиции, гостиница, туристические услуги, трудоустройство, тuroperator, экспорт.

Abstract: The article analyzes the content, structure, functions of tourism infrastructure in Uzbekistan, the need, significance, practice, legal framework, processes, investment opportunities and problems of its development, and also develops proposals and recommendations for solving these issues.

Keywords: Tourism, tourism industry, tourism infrastructure, tourism, investment, hotel, tourism services, employment, tour operator, export.

KIRISH

Dunyo mamlakatlarida hukm surayotgan koronavirus pandemiyasi ta'sirida jahon turizm industriyasi bugungi kunda burilish nuqtasida turibdi. Global iqtisodiyotning zamonaviy taraqqiyot omillari va imkoniyatlari shakllanib borayotgan XXI asrda turizm industriyasi o'zining yangi yo'nalishlari va rivojlanish salohiyatlarini namoyon etmoqdaki, pirovardida, jahonning aksariyat mamlakatlarida ijtimoiy hayotning zaruriy qismi, tarix bilan kelajakni bog'lovchi va jamiyatning moddiy-ma'naviy farovonligining ajralmas bo'lagi sifatida tobora ko'proq qabul qilinadigan odamlarning turizm haqidagi g'oyalari va obyektiv qarashlari o'zgarib bormoqda. Bunga dunyoda axborot aylanish tezligi, zamonaviy xizmat turlari, transport-logistika tarmog'ining jadal rivojlanishi va uning sifat darajalarining ortib borayotganligi ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Davom etayotgan global o'zgarishlar iqtisodiy va geosiyosiy muhitdan qat'iy nazar, uzoq muddatli istiqbolda turizm yuqori darajada rivojlanadi, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Turizm industriyasining rivojlanishi iqtisodiyotga ko'p jihatdan ijobiy samara keltiradi. Uning mavjud salohiyatidan samarali foydalanishda esa turizm infratuzilmasi muhim omil sifatida baholanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, mamlakatda turizm industriyasini rivojlantirishda turizm infratuzilmasi asosiy o'rinni egallaydi. Mamlakatning qulay geografik joylashuvi, iqtisodiy rivojlanish holati, ijtimoiy ahvoli, tarixiy-madaniy salohiyati kabilar sayyohlarni mamlakatga jalb etishda alohida ahamiyatga ega bo'lsa-da, mavjud imkoniyatlardan foydalanishni amalda ro'yobga chiqarishda turizm infratuzilmasining shakllanganligi asosiy shart sifatida markaziy o'ringa chiqadi.

Turizm ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir, u mahalliy turistik resurslardan foydalanishga asoslangan bo'lib, buning evaziga kompaniyalar yoki davlat daromad olishi kerak. Shu munosabat bilan barcha turizm kompaniyalari yangi muammolarga duch kelmoqdalar. Ular orasida qulaylik darajasini oshirish, yangi noyob yo'nalishlarni rivojlantirish, yangi sayyohlik bozorlarini egallash va h.k.larni ta'kidlash mumkin. Ushbu muammolarni hal qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu turizm infratuzilmasini rivojlantirishdir. Ammo uni yaratish infratuzilmaning turli korxonalari va davlat tomonidan katta e'tibor talab qiladi.



O'zbekiston Respublikasida ham turizm industriyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinayotgan hozirgi sharoitda undan kutilayotgan samaralarni qo'lga kiritishda turizm infratuzilmasining o'rni va holati beqiyos hisoblanadi. Shu sababdan so'nggi yillarda mamlakatimizda turizm infratuzilmasini talab darajasida shakllantirishga davlat darajasida alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Mavzu yuzasidan tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlarini va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlarini aniqlashdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatda turizmning faol rivojlanishi turizm infratuzilmasining samarali xizmati mavjudligida ta'minlanishi mumkin. Shunga ko'ra, bugungi hayotimizda turizm infratuzilmasi tobora ko'proq tilga olinayotgan sohalardan hisoblanadi. Turistik infratuzilma tushunchasi yangi tushuncha bo'lmasa ham, mahalliy adabiyotda uning yagona talqini mavjud emas. Ushbu tushunchaning mazmuni yagona ma'no kasb etishi hanuz ochib berilmaganligi iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini turizm infratuzilmasiga bog'lash va yo'naltirishning aniq belgilarining asoslanmaganligi hamda uning obyektlari doirasining noaniqligi bilan izohlanadi.

Turli hududlarda turistik infratuzilmaning rivojlanishiga turli xorijiy va mahalliy olim va mutaxassislar o'z asarlarida e'tibor berishgan: V.M. Ivanova, A.Yu. Aleksandrova, M.N. Dmitriyev, M.N. Zabayeva, A.S. Kuskov, V.L. Golubeva, T.N. Odinsova, V.V. Kameneva, A.N. Antonova, M.S. Lokteva, D.N. Suvanova, D.M. Abduraimov, A.N. Norchayev, S.A. Bogolyubova, D.F. Vasilixa [1–10].

Jumladan, V.M. Ivanovanning yozishicha, turizm infratuzilmasi deganda nafaqat turizmga bog'liq bo'lgan ijtimoiy xizmatlar, balki inshootlar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari kompleksi, shu jumladan, turistlarning turistik resurslardan normal foydalanishini va ulardan turizm maqsadlarida to'g'ri foydalanishni ta'minlash, turizm sohasidagi korxonalar va turistlarning o'zlar hayotini ta'minlovchi telekommunikatsiya tarmoqlari, turizm sohasiga qo'shni korxonalarni o'z ichiga olgan yo'llar ham tushunilishi kerak [1].

A.Yu. Aleksandrova bergan ta'rifga ko'ra, "Turistik infratuzilma – bu sayyohlarning turistik resurslarga normal kirishini va ulardan turistik maqsadlarda to'g'ri foydalanishni ta'minlovchi, shuningdek, turizm industriyasi korxonalarining hayotiyiligini ta'minlovchi, turizm sohasi faoliyati uchun mo'ljallangan inshootlar va ishlab chiqarish, ijtimoiy va rekreatsion maqsadlardagi mavjud majmua" [2].

M.N. Dmitriyev turistik infratuzilmaga uning tashkil topish tarkibiga ko'ra ta'rif beradi, ya'ni: "Bu – avtomobil va temir yo'llar, stansiyalar va terminallar, avtomobil, havo, daryo va dengiz tashishlarini boshqarish tizimlari, issiqlik ta'minoti tizimlari, elektr va telefon tarmoqlari va boshqalar", deya hisoblaydi [3].

A.S. Kuskov, V.L. Golubeva, T.N. Odinsovalar turizm infratuzilmasining turizm industriyasining ajralmas bir bo'g'ini sifatidagi xususiyatiga urg'u bergan holda uning mazmuni va tarkibini ochib berishga harakat qilganlar [4].

Unga ko'ra, turizm industriyasi 2 elementdan iborat bo'lib:

birinchi element – bu mehmondo'stlik sanoati, unga turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar kirishi kerak;

turizm industriyasining ikkinchi elementi – bu o'zini uch darajali tizim sifatida namoyon etuvchi infratuzilma tarkibi hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasining birinchi darajasi ishlab chiqarish infratuzilmasi – turistik mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan (keyingi ikki darajadagi tuzilmalardan farqli o'laroq) mavjud tuzilmalar, binolar, transport tarmoqlari, tizimlar majmuasi sifatida, biroq turistik xizmatlar – transport, aloqa, energetika, kommunal xo'jalik, moliya, sug'urta, xavfsizlik xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan majmua sifatida o'zini namoyon etadi [5].

Turistik infratuzilmaning ikkinchi va uchinchi darajalari turizm faoliyati va turistik mahsulotni shakllantirish bilan bevosita shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlar tomonidan shakllantiriladi.

Ikkinchi darajaga sayyohlarsiz mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan, ammo ular sayyohlar joylashadigan joylarda faoliyati kengayadigan tuzilmalar kiradi. Bu avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniyalar, taksi kompaniyalari (taksoparklar), kafe va restoranlar, sport klublari, muzeylar, teatrlar va kinoteatrlar, ko'rgazma zallari, sirkalar, hayvonot bog'lari, kazinolar va boshqalar hisoblanadi [6].

"Turizm infratuzilmasi"ga turizm tashkilotlari, turistlarga xizmat ko'rsatiladigan joylar, mehmonxonalar, ovqatlanish tarmoqlari, transportlar, yo'llar va turizm bo'yicha mutaxassislar kiradi, deya talqin etadi mahalliy tadqiqotchilardan bo'lgan D.N. Suvanova. Shuningdek, u hozirgi kunda respublikamizda turizm infratuzilmasini jahon andozalariga javob beradigan qilib tartibga keltirish uchun ancha mablag' ajratish kerakligini ta'kidlab o'tadi [7].

D.M. Abduraimov esa "Turizm infratuzilmasida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish omillari va xususiyatlari" nomli asarida turizm infratuzilmasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy jihatlariga, xususan, xarajatlar sarfini aniqlash uslubi-yatini takomillashtirish va turizm korxonasi daromadi masalasiga alohida e'tiborni qaratgan [8].



A.N. Norchayev esa o'z tadqiqotlarida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda mehmonxonalar xizmat ko'lamini va sifatini oshirishga oid tahlillar, xulosalar, taklif-tavsiyalar o'rin olgan [9].

S.A. Bogolyubova, D.F. Vasilixa "Faktori neeffektivnogo razvitiya regionalnoy infrastruktury turizma" nomli asarida turizm infratuzilmasining rivojlanishi umumiy iqtisodiy, tarmoqning o'ziga xosligi, ijtimoiy-madaniy, ekologik kabi qator omillarga bog'liqligi va shunga ko'ra, infratuzilmaviy muammolarni tadqiq qilgan holda ularni hal etishga doir tavsiyalar o'rin olgan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot ishida turizm infratuzilmasini rivojlantirishning omillari, yo'nalishlari va imkoniyatlarini aniqlashda keyingi yillarda milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan transformatsion o'zgarishlarni hisobga olish va tahlil qilish asosida o'rganish metodologiyasi qo'llanilib, ushbu yo'nalishda mutaxassislar fikrlariga tayangan holda iqtisodiy jarayonlar va tizimli ko'rsatkichlarni o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kuzatish, iqtisodiy guruhlash, omillarni tahlil qilish, empirik tadqiqot hamda qiyosiy tahlil kabi usullar orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berish usuli taklif etilgan. Shuningdek, turizm infratuzilmasini rivojlantirishga to'siq bo'luvchi muammolarni bartaraf etishga doir aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm infratuzilmasi rekreatsion resurslarni rivojlantirish va turizm sohasini rivojlantirishning zaruriy shartidir. Uning rivojlanishi, bir tomondan, hududning turistik rivojlanishiga hissa qo'shsa, boshqa tomondan, ushbu hudud aholisining yashash sharoitlarini yaxshilaydi. Bundan tashqari, turistik infratuzilma ko'plab ish o'rinlarini yaratadi. Shundan kelib chiqib, turizm infratuzilmasining mavjud salohiyat va imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishish iqtisodiyot transformatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirish jarayonida o'ta muhim vazifalardan hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasining samarali faoliyat ko'rsatishida uning bir qator funksiyalarini bajarishini qayd etib o'tish lozim. Ular qatoriga ta'minlovchi, integratsion va tartibga soluvchi funksiyalar kiritiladi [11].

Mazkur funksiyalar orqali amalga oshiriladigan tadbirlar quyidagi 1-rasmda o'z ifodasini topgan (1-rasm):




1-rasm. Turizm infratuzilmasi funksiyalari¹ [12]

1 Manba: muallif ishlanmasi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur turizm infratuzilmasi funksiyalarining amaliyotda samarali ishlashi mualliflar A.S. Kuskov, V.L. Golubeva, T.N. Odinsovalar o'z asarida keltirib o'tganlaridek, uning uch darajali bo'g'indagi turizm infratuzilmasining faoliyatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida biz turizm infratuzilmasining uch darajali bo'g'ini quyidagilardan tashkil topgan bo'lishi lozim, degan xulosaga keldik (2-rasm).



2-rasm. Turizm infratuzilmasi tarkibiy tuzilishi² [12]

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida mamlakat turizm salohiyatini oshirishda turizm infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Buning natijasida respublikamizda birinchi bor 2019-yilda turizm xizmatlari eksporti hajmi 1 313,0 mln AQSH dollariga yetdi, koronakrizis ta'siri sabab bu ko'rsatkich 2020-yilda 261,0 mln AQSH dollariga tushib ketdi [13, 14].

Biroq, turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish, turizm tarmog'ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'paytirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi

2 Manba: muallif ishlanmasi.



Prezidentning 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son³ Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasiga ko‘ra, 2021-yilda mamlakatda turizm xizmatlari eksporti hajmini 2019-yildagidan ham yuqori, ya‘ni 1 620 mln AQSH dollariga, 2025-yilga borib esa kamida 2 170 mln AQSH dollariga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. Mamlakatimizda turizm industriyasini rivojlantirishga doir amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mazkur natijalarni ortig‘i bilan qo‘lga kiritish imkonini ta‘minlashiga shubhamiz yo‘q.

O‘z navbatida, so‘nggi yillarda respublikamizda turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yangicha yondashuvlar va zamonaviy qarashlarning amaliyotga joriy etilayotganligi, hayotga singdirib borilayotganligi turizm industriyasi salohiyatini yanada ko‘tarishda, mahalliy va xorijiy turistlarni keng jalb etishda muhim omil sifatida o‘z samarasini ko‘rsata boshladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-son⁴ Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5048-son⁵li qarori qabul qilingan edi. Ushbu qarorda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida hududlarda “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomiga egaligi belgilab qo‘yilishi, shu asosda joylarda bunday hududlarning yanada ko‘payishiga erishilmoqda. Bu esa turistik oqimlar yo‘nalishi va jozibadorligini oshirishda hamda shunga muvofiq Qarorda belgilanganiga ko‘ra, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan turizm obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash bilan bog‘liq tadbirlar amalga oshirilishiga yanada jiddiy e‘tibor qaratilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda turistlarsiz mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lmagan turistik korxonalar va tashkilotlar, xususan, mehmonxonalar, motellar, xostellar, otellar kabilarning yetarli miqdorda va talab darajasida qurilganligi, rekonstruksiya qilinganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Koronavirus pandemiyasi sharoitida ham davlat tomonidan mazkur turistik xo‘jalik tuzilmalarining faoliyati, rivojlanishi keng qo‘llab-quvvatlanishi sababli respublikamizda turistlarni mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalarida qabul qilish imkoniyatlari yanada ortib borayotganligi e‘tiborga molikdir. Bu O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi ijrosini ta‘minlashda muhim o‘rin tutmoqda.

1-jadval ma‘lumotlari mazkur sohadagi o‘zgarish va rivojlanishlardan darak beradi. Ya‘ni, statistik ma‘lumotlar respublikamizda so‘nggi yillarda turizm infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi ortib borganligini, turistlarsiz mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lmagan mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni ham o‘sib borgan holda 2016-yildagi 750 tadan 2020-yilga kelib 1 308 taga, ya‘ni 1,7 martaga oshganligini, buning natijasida ulardagi yaratilgan turistlarni qabul qilish o‘rinlarining soni 1,8 martaga oshib, 62 mingtaga yetganligini, turistlarga maxsus xizmat ko‘rsatuvchi turoperatorlar soni esa 2,8 martaga oshganligini, shuningdek, sohadagi band bo‘lganlar soni ham doimiy o‘sib borganligini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasining rivojlanish ko‘rsatkichlari⁶ [12, 13]

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar					2020-yilda 2016-yilga nisbatan o‘sishi, foiz
		2016	2017	2018	2019	2020	
1	Turizm infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. So‘m	1052,1	1428,3	1956,1	1741,6	X*	1,7 m.**
2	Turistlarsiz mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lmagan mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni, dona	750	764	914	1188	1308	1,7 m.
3	Mavjud o‘rinlar soni, ming ta	34	39,8	41,1	52,5	62	1,8 m.
4	Turizm sohasida band bo‘lganlar, ming kishi	170,9	187,6	201,0	260,1	X*	1,5 m.**
5	Turoperatorlar soni, birlik	411	561	983	1482	1158	2,8 m.

Izoh: * – 2020-yil ma‘lumotlari topilmadi; ** – 2019-yilga nisbatan hisoblandi.

3 <https://lex.uz/docs/-4474527>

4 <https://lex.uz/uz/docs/-5260791>

5 <https://lex.uz/docs/-5352583>

6 Manba: muallif ishlanmasi.



O'z navbatida, sohada kuzatilayotgan ijobiy rivojlanish sur'atlarini yanada jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PQ-5048-sonli Qaror asosida mamlakatimizda turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun 2021-yilda respublikamiz hududlari bo'yicha jami 1,0 trln so'm miqdoridagi investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda ajratiladigan bo'ldi. Bu turizm infratuzilmasining yanada rivojlanishi va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda respublikamiz bo'yicha turizm infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltiriladigan jami 1,0 trln so'mlik investitsiyalar 5 ta yo'nalish bo'yicha hududlar kesimida joylashtirilib, ular tarkibida eng katta summa (23,8%) Xorazm viloyatiga, so'ngra Samarqand viloyatiga (13,5%) yo'naltirilishi, shuningdek, Jizzax viloyatining turistik salohiyatidan kelib chiqib, mazkur viloyat turizm infratuzilmasiga ham katta miqdordagi investitsiya (9,2%) sarflanishi ko'zda tutilgan (2-jadval).

2-jadval.
Turizm infratuzilmasini rivojlantirish⁷ [14]
mln. so'm

No	Hududlar nomi	Jami	Madaniy meros obyektlari va ularning hududlarini rivojlantirish	Turizm va yondosh infratuzilmani rivojlantirish	Yo'l infratuzilmasini rivojlantirish	Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish	Boshqa tadbirlar
	Jami	1000000	240673	131721	22788	104145	301674
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	84895	31400	14375	16300	19210	3610
2	Andijon viloyati	29894	15964	1965	6700	1965	3300
3	Buxoro viloyati	82861	10535	2975	31564	23063	14724
4	Jizzax viloyati	91500	12500	20650	18050	8000	32300
5	Qashqadaryo viloyati	85000	18000	13650	34500	6000	12850
6	Navoiy viloyati	54650	24700	11650	15400	600	2300
7	Namangan viloyati	37513	7080	939	21000	7694	800
8	Samarqand viloyati	135056	43444	38256	26000	10864	16493
9	Surxondaryo viloyati	57109	20349	12025	17005	6880	850
10	Sirdaryo viloyati	4476	1641	302	1186	548	800
11	Toshkent viloyati	48431	1000	1896	23805	10930	10800
12	Farg'ona viloyati	33815	16800	2000	5050	6341	3624
13	Xorazm viloyati	238365	36935	8986	5170	2000	185274
14	Toshkent shahar	16434	325	2052	58	50	13949

Mamlakatimiz hududlari tarkibida eng kam investitsiyalar Sirdaryo viloyati turizm infratuzilmasiga (0,4%) va Toshkent shahri turizm infratuzilmasiga (1,6%) yo'naltirilishini ko'rish mumkin.

Umuman olganda, davlat tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yo'naltirilayotgan investitsiyalardan tashqari, xususiy sektor vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning ham ishtiroki mavjudligini inobatga olsak, yaqin 5 yil ichida O'zbekistonda mazkur sohada ulkan yuksalishlarga

7 Manba: muallif ishlanmasi.



erishish imkoniyatlari mavjudligini ko'rish mumkin. Bu esa turizm industriyasining jadal sur'atlarda rivojlanishiga o'zining samarali ta'sirini ko'rsatadi, albatta.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, rus olimi Bogolyubova S.A. o'z tadqiqotlarida keltirib o'tgani singari omillar O'zbekiston turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar va ustuvor yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lmoqda, jumladan:

- umumiy iqtisodiy va umumtuzimli xususiyat kasb etuvchi omillar (turizm infratuzilmasini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish; mulkiy munosabatlarni takomillashtirish; turizm infratuzilmasi imkoniyatlarini yanada boyitish; hududiy rivojlanishni muvozanatlashtirish va boshqalar);

- tarmoqning o'ziga xosligi (infratuzilma obyektlaridan samarali foydalanishning mavsumiy xususiyatlarini hisobga olish; aniq maqsad segmentlariga yo'naltirilgan xizmatlarni rivojlantirish; texnologik, ekologik va shaxsiy xavfsizlik standartlarini takomillashtirish va boshqalar);

- ijtimoiy-madaniy omillar (hududning tarixiy qiyofasini asrab-avaylash; madaniyat va an'analarni saqlash hamda targ'ib etish va boshqalar);

- ekologik omillar (mintaqaviy turizm infratuzilmasini hudud o'tkazuvchanligi darajasiga muvofiq rivojlantirish; turistik markazlarda ekologik barqarorlikni ta'minlash va boshqalar) [10];

- shuningdek, informatsion omillar (axborotlarning to'liqligi va ishonchligini oshirish; axborotlarni o'z vaqtida olish va qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish; axborotlar almashinuvi va taqdim etilishi xizmatlari sifatini yuksaltirish va boshqalar);

- transport omili (taksoparklar faoliyatini kengaytirish; turli yengil transport vositalarini sayyohlar tomonidan qulay ijaraga olish va tezkor rasmiylashtirish imkoniyatlarini rivojlantirish; avtobus, mikroavtobus singari transport vositalaridan tashqari holatlarda sayyohlarga kichik jamoa yoki individual tarzda turoperatorlik va transport xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish va boshqalar);

- yo'llar sifati omili (sayyohlik makonlari va diqqatga sazovor joylarga olib boruvchi yo'llarni xalqaro me'yorlar asosida modernizatsiya qilish; yo'llarni ta'mirlash sifati va samaradorligini yanada oshirish; yo'llarda transport vositalariga xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish hamda sayohatlarning uzluksizligini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish va boshqalar);

- malakali kadrlar omili (kadrlar sonini oshirish, sifatini yuksaltirish, tajribasini boyitish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va boshqalar) kabilar turizm infratuzilmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda [12].

Yuqorida keltirilgan yo'nalishlar O'zbekistonda turizm infratuzilmasining salohiyatini va undan foydalanish samaradorligini yanada oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, shu sababdan ularni izchil rivojlantirish turizm infratuzilmasini takomillashtirish va turizm industriyasini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish mamlakat turizm industriyasini yanada yuksaltirishda markaziy o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish va uning imkoniyatlarini kengaytirish oraliq tarmoq sifatida baholanuvchi turizm industriyasining hududlar va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi hissasi hamda salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu sababdan mazkur yo'nalishlarni izchil rivojlantirish mikro, mezo va makrodarajadagi taraqqiyotlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunga muvofiq holda, mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Turizm industriyasini rivojlantirish uchun, eng avvalo, turizm infratuzilmasiga birlamchi e'tiborni qaratish va kuchaytirish lozim.

Turizm infratuzilmasiga oid muammolarni bartaraf etish investitsiyalarga bevosita bog'liq bo'lib, ularni jalb etishda xorijiy investitsiyalar ishtiroki va ko'lamini oshirish choralarini ishlab chiqish zarur.

Turizm infratuzilmasining rivojlanishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari (transport-logistika; suv, o'rmon va qishloq xo'jaligi tarmoqlari; axborot texnologiyalari tarmog'i; ta'lim tarmog'i; sog'liqni saqlash tarmog'i; savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa tarmoqlar) rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatishini inobatga olib, mazkur sohaga yo'naltirilgan investitsiyalarga oid pandemiya sharoitidagi imtiyozlarni 2025-yilga qadar uzaytirish lozim.

O'zbekistondagi mavjud turistik salohiyatlarni to'liq o'rganib chiqqan holda turizm infratuzilmasining turizmning barcha yo'nalishlarini tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlarini yaratish zarur.

Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar jahon turizm industriyasida yuzaga kelayotgan va kutilayotgan o'zgarishlarga tayyor turish va munosib tarzda javob berish bilan O'zbekistonning global turizm tarmog'idan ajralib qolmasligini hamda turizm infratuzilmasining istiqbolli rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иванова В.М. Туризм: основы, направления, структура. – М.: ИД “Феникс”, 2008. – 265 с.
2. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. – М.: Аспект Пресс, 2002. – 470 с.
3. Дмитриев М.Н., Забаева М.Н. Экономика и предпринимательство в социально-культурном сервисе и туризме: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – 236 с.
4. Кусков А.С., Голубева В.Л., Одинцова Т.Н. Рекреационная география: Учебно-методический комплекс. – М.: Флинта, 2005. – 496 с.
5. Каменева В.В. Антонова А.Н. Транспортная составляющая инфраструктуры туризма. // Региональная экономика: теория и практика, 2009. – № 8. – С. 33–37.
6. Локтева М.С. Туризм как сфера социально-культурной деятельности // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Образование, здравоохранение, физическая культура. – 2006. – № 16. – С. 119–123.
7. Суванова Д.Н. Зарафшон воҳасида туризм инфратузилмасини инновацион ривожлантиришнинг рақамли микроиқтисодиётдаги роли. // “Science and Education” Scientific Journal. May 2020, 225-229-бетлар. // www.openscience.uz
8. Абдураимов Д.М. Туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятни амалга ошириш омиллари ва хусусиятлари. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №2, mart-aprel, 2021 yil. 386-395-бетлар. // <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
9. Норчаев А.Н. Туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятни амалга ошириш омиллари ва хусусиятлари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. №1, январь-февраль, 2019 йил. 1-8-бетлар. // www.iqtisodiyot.uz
10. Боголюбова С.А., Василиха Д.Ф. Факторы неэффективного развития региональной инфраструктуры туризма. // Современные проблемы науки и образования. – Режим доступа: <http://www.science-education.ru/100-4960>.
11. Воскресенский В.Ю. Международный туризм: Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ–ДАНА, 2007. – 255 с.
12. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. // <https://stat.uz>
13. Ўзбекистон Республикаси Туризм ва спорт вазирлиги маълумотлари. // <https://minsport.uz/uz/ministry>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5048-sonli qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-5352583>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>